

KRIMINALISTIKA TUSHUNCHASI HAQIDA**Shodiyeva Ruxshona Davlat qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Pedagogika va Psixologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinoyatlarni tergov qilish uslubiyati hisoblangan kriminalistika fanining yakunlovchi bo'limi haqida ma'lumotlar berilgan. Maqolada kriminalistikaga oid qonuniylik talablariga muvofiq holda, tergov va surishtiruvni samarali o'tkazish bo'yicha ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida jinoyatlarni ochish, tergov qilish hamda ularning oldini olishni tashkil qilish masalalari haqida fikrlar mavjud.

Kalit so'zlar: Kriminalistika fani, sud lingvistikasi, odorologiya, dastlabki tergov jarayoni, surishtiruv haqida, Respublika Prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Prokuror va tergovchi.

Kriminalistika bu sud dalillarini yig'ish, qayd qilish, tadqiq etish va ulardan foydalanishning maxsus usul va vositalari tizimini ishlab chiquvchi fan hisoblanadi. Mazkur usullar va vositalar jinoyatlarni fosh qilish, tekshirish va oldini olish uchun qo'llanadi. Bir qator holdarda esa bu usul va vositalardan fuqarolik ishlarini sudda ko'rib chiqishda foydalaniladi.

Kriminalistika fan sifatida XIX asr oxiri XX asr boshida shakllandi. Bu fan jinoyatga oid sudlov ishlarini yurgizish, jinoyat huquqi, kriminologiya, ma'muriy huquq, shuningdek, sud tibbiyoti, sud psixiatriyasi va boshqalar bilan chambarchas bog'langan. Kriminalistikaning umumiy nazariyasi, kriminalistik texnikasi, kriminalistika taktikasi hamda alohida jinoyat turlarini tekshirish va oldini olish kabilar kriminalistika fanining eng muhim bo'limlari hisoblanadi. Kriminalistika texnikasi dalillarni to'plash, qayd qilish va tadqiq etish bo'yicha maxsus usullarni, ilmiy-texnik vositalar tizimini o'z ichiga oladi[4]. Kriminalistikaning mazkur qismiga sud ballistikasi, trasologiya, sud lingvistikasi, odorologiya (jinoyatlarni ochishda hiddan foydalanish), daktiloskopiya, sudga oid suratga olish va boshqa kiradi.

Umumiy qoidalar kriminalistik uslubiyatning nazariy asoslari bo'lib, u kriminalistikaning mazkur qismining mavzuyi (predmeti)ni, ilmiy bilimlarning boshqa sohalari bilan aloqalarini, xususiy kriminalistik uslubiyatlarni tuzish, ishlab chiqish va ulardan foydalanishga oid eng muhim masalalarni hamda jinoyatlarni ochish, tergov qilish va ularning oldini olish muammolarini tadqiq etishni o'z ichiga oladi. Pirovard natijada samarali xususiy kriminalistik uslubiyatlarning yaratilishi va ularning jinoyatchilikka qarshi kurashda muvaffaqiyatli qo'llanilishi ana shu masalalarning qanchalik puxta ishlab chiqilganligiga bog'liq bo'ladi[2].

Xususiy uslubiyatlar – kriminalistika fanining pirovard mahsuloti bo'lib, amaliy xususiyatga ega bo'lgan hamda tergovchilar va surishtiruvchilarga jinoyatlarning har xil turlarini ochish, tergov qilish va bartaraf etishda ularning ishlarini maqbullashtirish uchun mo'ljallangan nazariy jihatdan asoslangan tavsiyalar majmuidan iboratdir. Kriminalistik uslubiyotning umumiy qoidalaridan farqli o'laroq xususiy uslubiyotlar – bu jinoyatlarning ayrim turlarini ochish, tergov qilish va jinoyatchilikni bartaraf etishni tashkil qilish bo'yicha uslubiy toifalashtirilgan tizimdir.

Kriminalistik uslubiy tavsiyalar – jinoyatlarning muayyan turlarini ochish, tergov qilish va ularning oldini olishni tashkil etish hamda amalga oshirish bo'yicha ilmiy ishlab chiqilgan va amalda tekshirilgan maslahatlar (takliflar)dir. Har bir xususiy uslubiyot amalda turli sharoitlarda ishlash uchun o'zaro bir-biriga bog'liq maslahatlar tizimini (majmuini) hosil qiluvchi bir necha tavsiyani o'z ichiga oladi[3].

Tergov qilish uslubiyati – jinoyat ishini yuritishga doir qonun talablaridan, vujudga kelgan tergov vaziyati xususiyatlaridan, jinoyatlarning mazkur turini ochish vastergov qilish nazariyasi va amaliyotiga doir bilimlardan kelib chiqib tergovchi tanlagan haqiqatni aniqlash usulidir. Tergov ishining natijalari sodir etilgan jinoyatlarga oid arizalar va xabarlarini o'z vaqtida va to'la ko'rib chiqishga bog'liq. Afsuski, ushbu bosqichda xatolarga yo'l qo'yish, qonun talablarini buzish hollari tez-tez uchrab turadi. Ana shu bois ham Respublika Prokuraturasi va Ichki ishlar vazirligining ko'rsatuvlarida jinoyat ishini qo'zg'atishni asossiz ravishda rad etish, jinoyatni hisobdan yashirish hollarini batamom tugatish zarurligi aytiladi.

Sodir etilgan jinoyatlarni ro'yxatga olishda qat'iy tartib o'rnatish, jinoyat sodir etilganligi haqidagi har bir xabarga tegishli javob berish tergov apparatining asosiy vazifasidir. Agar jinoyatni tergov qilish davomida bunday xabarlarni ko'rib chiqish tartibi buzilganligi aniqlansa, tergovchi, ushbu holatga e'tibor berishi va tegishli chora ko'rishi zarur[2].

Jinoyat protsessining mustaqil bosqichi bo'lgan dastlabki tergov jinoyat-protsessual qonun hujatlaridan kelib chiquvchi bir qator xususiyatlarga ega. Dastlabki tergov sudgacha amalga oshiriladigan protsessual faoliyat ekanligi va uning davomida sudning jinoyat ishini to'la-to'kis hal qilishi uchun zarur bo'lgan sharoitlar yaratilishi yuqorida qayd etilgan xususiyatlarni va vazifalarni belgilab beradi.

Prokuror va tergovchi doimo sud amaliyotidan boxabar bo'lishi, jinoyat ishi sudda ko'rib chiqilganidan so'ng, tergov davomida yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil etishi, o'tkazilgan tergovning sifatiga doir sudning fikriga e'tibor berishi zarur. Sud muhokamasi o'zining xususiyatlari va oshkoraligi bilan o'tkazilgan tergovning kuchli va o'jiz tomonlarini aniqlab beradi. Chunki tergovchi tomonidan bajarilgan jinoyat ishida, uning yutuqlari bilan birga, ba'zida xato va kamchiliklari ham ochiq ko'rinib turadi[1]. Tergov va sud amaliyotining o'zaro ta'siri, jinoyat ishlarini sudda ko'rib chiqish natijalarini inobatga olgan holda dastlabki tergov sifatini yaxshilashga imkon beruvchi usullarni ishlab chiqish tergov apparati faoliyatini takomillashtirishning muhim shartidir.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Kriminalistika bu sud dalillarini yig'ish, qayd qilish, tadqiq etish va ulardan foydalanishning maxsus usul va vositalari tizimini ishlab chiquvchi fan hisoblanadi. Mazkur usullar va vositalar jinoyatlarni fosh qilish, tekshirish va oldini olish uchun qo'llanadi. O'zbekistonda kriminalistik ekspertizasi o'tgan asrning 40-yillaridan boshlab Adliya vazirligi huzuridagi ilmiy tadqiqot laboratoriyasida o'tkazilib kelindi. Keyinchalik Adliya vazirligi huzuridagi ilmiy tadqiqot laboratoriyasi negizida Sud ekspertiza ilmiy tadqiqot instituti, so'ngra shu vazirlik huzurida davlat ekspertiza markazi tashkil etildi. Mazkur markaz respublikada kriminalistika fanini rivojlantirish, yetuk milliy yurist xodimlarni yetishtirish ishiga

katta hissa qo'shgan akademik Xadicha Sulaymonova nomi bilan ataladi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda kriminalistikani rivojlantirish, kriminalistika ekspertizasini o'tkazish ishini eng zamonaviy texnika vositalari bilan ta'minlash tadbirlari ko'rildi. Kriminalistika fan sifatida O'zbekiston milliy universiteti, TDYU, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi va boshqa o'quv yurtlarida o'qitiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Raxmanqulov A. X. Mirazov D. M. Dastlabki tergov. Toshkent. 2012. 278-280-
2. Rustambayev M. H. Kriminalistika. (Darslik.) Toshkent. 2008. 196-198-b.
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 2000. 152-b.
4. www.wikipedia.org. internet sayti.